



1920–1930-YILLARDA SURXONDARYODA O‘QITUVCHILARGA
NISBATAN SIYOSIY TA‘QIBLAR VA UNING XALQ TA‘LIMIGA
TA‘SIRI

Tillayeva Shohsanam Odil qizi,

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Surxondaryo akademik litseyi, tarix fani o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada 1920–1930-yillarda Surxondaryo viloyatida o‘qituvchilarga nisbatan amalga oshirilgan siyosiy ta‘qiblar va ularning xalq ta‘limi tizimi rivojiga ko‘rsatgan salbiy oqibatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida pedagog kadrlarning mafkuraviy jihatdan nazorat ostiga olinishi, ularni “ishonchsiz ijtimoiy qatlam” sifatida baholash mexanizmlari hamda repressiya siyosatining hududiy xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada arxiv hujjatlari, himoyadan o‘tgan dissertatsiyalar va yetakchi tarixchilarning ilmiy asarlariga tayangan holda Surxondaryo viloyatida ta‘lim tizimida yuzaga kelgan kadrlar tanqisligi, ta‘lim sifati pasayishi va pedagogik muhitning mafkuraviylashuvi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Olingan xulosalar bugungi kunda o‘qituvchi shaxsining huquqiy himoyasi va kasbiy erkinligini ta‘minlash masalalarini tarixiy tajriba asosida baholash imkonini beradi.*

***Kalit so‘zlar:** siyosiy repressiya, o‘qituvchi kadrlar, xalq ta‘limi tizimi, Surxondaryo viloyati, sovet ta‘lim siyosati, mafkuraviy nazorat, 1920–1930-yillar.*

***Abstract:** This article provides a scholarly analysis of political repressions carried out against teachers in the Surkhandarya region during the 1920s–1930s and examines their negative impact on the development of the public education system. The study reveals the mechanisms of ideological control imposed on pedagogical personnel in the early years of Soviet rule, their classification as a “socially unreliable group,” and the regional specificities of repressive policies. Drawing on archival documents, defended dissertations, and academic works by*



leading historians, the article substantiates the causes of staff shortages, declining educational quality, and the ideological transformation of the pedagogical environment in the Surkhandarya region. The findings contribute to a historical reassessment of contemporary issues related to the legal protection and professional autonomy of teachers.

Keywords: *political repression, teaching staff, public education system, Surkhandarya region, Soviet educational policy, ideological control, 1920s–1930s.*

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish va kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida so‘z yuritar ekan, “jamiyatda o‘qituvchi va murabbiylarning obro‘-e‘tiborini oshirmasdan turib, ta‘lim sohasida kutilgan natijalarga erishib bo‘lmaydi”, deb ta‘kidlaydi¹. Ushbu yondashuv o‘qituvchi shaxsining nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyatini chuqur anglash zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, tarixiy tajribani, xususan, sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida o‘qituvchilarga nisbatan olib borilgan siyosiy munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. 1920–1930-yillar O‘zbekiston tarixida sovet hokimiyatining mustahkamlanishi, siyosiy nazorat va mafkuraviy bosimning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda o‘qituvchi shaxsi davlat mafkurasini singdiruvchi asosiy kuch sifatida baholanib, pedagog kadrlarning siyosiy qarashlari va ijtimoiy kelib chiqishi qat‘iy nazorat ostiga olindi.

Surxondaryo viloyati ijtimoiy-madaniy jihatdan an‘anaviylik kuchli bo‘lgan hududlardan biri bo‘lib, bu yerda jadidchilik an‘analari, eski maktab va madrasalar ta‘siri nisbatan uzoq saqlanib qoldi. Ushbu holat sovet hokimiyati uchun mahalliy o‘qituvchilarni “ishonchsiz ijtimoiy qatlam” sifatida baholashga sabab bo‘ldi. Maqolaning maqsadi — Surxondaryo viloyati misolida o‘qituvchilarga nisbatan



amalga oshirilgan siyosiy ta'qiblarning sabablari, shakllari va oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning xalq ta'limi tizimiga ko'rsatgan ta'sirini ochib berishdan iborat. Sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimi jamiyatni siyosiy jihatdan qayta shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaraldi. O'zbekiston SSR maorif tizimi 3 ta yo'nalishda amalga oshirilgan: maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi va oliy ta'limdan tashkil topgan edi. Maktabgacha ta'lim tizimi o'z ichiga 3 ta muassasa: 1) bolalar uylari; 2) bolalar maydonchalari; 3) bolalar bog'chalarini qamrab olgan. Sovet uzluksiz ta'lim tizimi esa ikki bosqich: xalq ta'limi va oliy ta'limdan tashkil topgan edi. O'z o'rnida, xalq ta'limi tizimi: a) boshlang'ich va o'rta maktab; b) o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim esa institut, universitet hamda xodimlarni qayta tayyorlash muassasalaridan iborat bo'lgan. Shu bilan bir qatorda maorifda tizimida ham ahvol og'ir bo'lib, 1925-yillardagi eng katta muammo bu mablag' yetishmasligi, o'qituvchilarning va darsliklarning yetishmasligi bo'ldi. Ta'limda eng oqsagan hududlar esa Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va Xorazm viloyatlari bo'lgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, 1920-yillardan boshlab o'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki sovet mafkurasining faol targ'ibotchisi bo'lishi lozim edi. Shu sababli pedagoglardan partiyaga sadoqat, ateistik dunyoqarash va sovet tuzumiga mutlaq itoat talab qilindi.

Bundan tashqari jadid maktablarida faoliyat yuritgan, shuningdek, diniy ta'lim bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchilar "eski tuzum qoldiqlari" sifatida baholanib, ularga nisbatan siyosiy ishonchsizlik kuchaygan. Surxondaryo hududida bunday pedagoglar nisbatan ko'p bo'lgani sababli bu yerda siyosiy nazorat va tekshiruvlar yanada keskin tus oldi.

Surxondaryo viloyatida o'qituvchilarga nisbatan siyosiy ta'qiblar bir necha asosiy shakllarda amalga oshirilgan. Eng keng tarqalgan shakl — maktab va ta'lim muassasalaridan majburiy ravishda ishdan bo'shatish bo'lib, bu ko'pincha "sinfiy yot unsur", "millatchi" yoki "diniy qarashlarga moyillik" kabi ayblovlar bilan asoslangan.

Ikkinchi shakl sifatida jinoiy javobgarlikka tortish, hibsga olish va surgun qilish



holatlari alohida ahamiyat kasb etadi. 1929–1941-yillarda O‘zbekiston SSR maorifi sohasida faoliyat yuritgan 391 nafar maorif xodimi, talabalar va aspirantlarni qo‘shib hisoblaganda esa 420 nafar shaxs siyosiy ayblovlar bilan qatag‘on qilinganligi aniqlangan. Ushbu raqamlar hududlar kesimida taqsimlanganda Toshkentdan – 89 kishi, Samarqanddan – 42 kishi, Qoraqalpog‘istondan – 40 kishi, Andijondan – 31 kishi, Buxorodan – 30 kishi, Qo‘qondan– 24 kishi, Namangandan – 23 kishi, Qashqadaryodan – 19 kishi, Xorazmdan – 14 kishi, Jizzaxdan- 6 kishi, Surxondaryodan – 5 kishi, Farg‘onadan – 5 kishi, Sirdaryodan – 3 kishi va boshqa joylardan kelib ishlagan maorif xodimlaridan – 57 kishi va hududi aniq bo‘lmaganlardan 3 nafar maorif xodimlari qatag‘on qilingani aniqlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, respublikaning har bir hududida qatag‘on siyosatidan jabr ko‘rgan oilalar bo‘lgan.

Bundan tashqari, doimiy tekshiruvlar, majburiy yig‘ilishlar va jamoat oldida tanqid qilish orqali o‘qituvchilarga kuchli ma‘naviy bosim o‘tkazilgan. Bu holat pedagoglarning kasbiy faolligi va tashabbuskorligini sezilarli darajada cheklagan.

O‘qituvchilarga nisbatan olib borilgan siyosiy repressiyalar Surxondaryo viloyatidagi xalq ta‘limi tizimiga jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng avvalo, tajribali va malakali pedagog kadrlarning ta‘qib qilinishi maktablarda kadrlar tanqisligini yuzaga keltirdi. 1930-yillarning boshlariga kelib qishloq maktablarida darslar qisqa muddatli kurslarni tugatgan, yetarli pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan olib borilgan.

Natijada ta‘lim sifati pasayib, o‘quvchilarning bilim darajasi va savodxonlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar mustaqil fikr bildirishdan cho‘chib, faqat markazdan yuborilgan dastur va ko‘rsatmalar doirasida faoliyat yuritishga majbur bo‘ldilar. Bu esa ta‘lim jarayonining ijodiy va tarbiyaviy jihatlarini chekladi.

Xulosa qilib aytganda, 1920–1930-yillarda Surxondaryo viloyatida o‘qituvchilarga nisbatan amalga oshirilgan siyosiy ta‘qiblar sovet hokimiyatining umumiy repressiv siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u bevosita xalq ta‘limi



tizimining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. O'qituvchilar sovet mafkurasini singdiruvchi asosiy ijtimoiy kuch sifatida qaralganligi sababli, ularning siyosiy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi va avvalgi faoliyati qat'iy nazorat ostiga olingan.

Surxondaryo viloyatida jadidchilik an'analari va an'anaviy ta'lim muassasalari ta'sirining nisbatan kuchli bo'lgani mahalliy pedagog kadrlarning "ishonchsiz qatlam" sifatida baholanishiga olib kelgan. Natijada ko'plab tajribali o'qituvchilar ishdan chetlatilgan, siyosiy ayblovlar bilan hibsga olingan yoki kasbiy faoliyatini davom ettirish imkoniyatidan mahrum etilgan. Bu holat viloyat maktablarida malakali pedagog kadrlar tanqisligini yuzaga keltirib, ta'lim jarayonining sifati va barqarorligiga jiddiy zarar yetkazgan. Shuningdek, doimiy mafkuraviy bosim va nazorat o'qituvchilarning ijodiy va tashabbuskorlik faoliyatini cheklab, ta'lim jarayonini rasmiylashtirilgan va buyruqbozlikka asoslangan shaklga keltirib qo'ydi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini keskin kamaytirdi.

Mazkur tarixiy tajriba bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi davrda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida o'qituvchi shaxsining huquqiy himoyasini kuchaytirish, uning kasbiy erkinligi va ijtimoiy mavqeini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 1920–1930-yillardagi repressiv tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsining erkinligi va himoyasi ta'minlanmagan sharoitda ta'lim tizimining barqaror rivoji mumkin emas. Shu bois, mazkur maqolada olingan ilmiy xulosalar ta'lim siyosatini takomillashtirish jarayonida tarixiy saboqlarni inobatga olish zarurligini asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqi. – Toshkent, 2020-yil 30-sentabr.
2. Tursunova Y. B. *Sovet hokimiyatining Turkiston–O'zbekiston SSRdagi ta'lim siyosati (1918–1941-yillar): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.* – Toshkent, 2024.



3. Qodirov A. *O'zbekistonda siyosiy repressiyalar tarixi*. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Karimov Sh. *Jadidchilik harakati va ta'lim masalalari*. – Toshkent, 2010.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. *O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar)*. – Toshkent, 2010.